

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/5 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Тахририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА  
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ  
САМАРКАНДСКОГО СОГДА ..... 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрам о'g'li*  
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR .....20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*  
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ  
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*  
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI .....32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*  
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*  
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....46-51
- Матажонов Раҳимжон Акрамович*  
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*  
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ  
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*  
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF  
UZBEKISTAN ..... 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*  
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ  
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ..... 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*  
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH  
USULLARI VA AFZALLIKLARI ..... 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAMLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI .....	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

### 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

### 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277



---

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI .....	316-322



*10.00.00- Филология фанлари*

**Hazratqulov Mutallib Rashidovich**  
dotsent

**Gulxanova Fotima**  
talaba

**Qarshiboyeva Muborak**  
Talaba, Samarqand davlat universiteti

### **NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI**

**Annotatsiya.** Nutqni idrok etish, aytilayotgan gapni, fikrni tushunish murakkab jarayon bo'lib, ham fiziologik, ham aqliy, ham ruhiy holatlarni o'zida qamrab oladi. Ushbu maqolada nutqni idrok etish qonuniyatlari, mexanizmlari, bu borada olimlarning turlicha qarashlari va tadqiqotlari, notiqning tinglovchiga so'z ma'nosini yetkazib berish usullari kabi masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** nutq va til, fikr, gap, fonema, eshitish, aniqlash, idrok etish, tushunish, qonuniyat.

---

**Hazratqulov Mutallib Rashidovich**  
associate professor

**Gulxanova Fotima**  
student

**Qarshiboyeva Muborak**  
Student, Samarkand State University

### **LAWS OF SPEECH PERCEPTION**

**Abstract.** The perception of speech, understanding what is being said, Thought, is a complex process, covering both physiological and mental and mental states. This article analyzes issues such as the laws, mechanisms of speech perception, the different views and studies of scientists in this regard, the ways in which the speaker delivers the meaning of a word to the listener.

**Keywords:** speech and language, thought, sentence, phoneme, hearing, identification, perception, understanding, law.

---

**Хазраткулов Муталлиб Рашидович**  
доцент

Гульханова Фотима  
студентка

Каршибаева Муборак  
Студентка, Самаркандский государственный университет

## ЗАКОНЫ ВОСПРИЯТИЯ РЕЧИ

**Аннотация:** Восприятие речи, понимание сказанного, мысли-сложный процесс, охватывающий как физиологические, так и психические и психические состояния. В данной статье анализируются такие вопросы, как закономерности, механизмы восприятия речи, различные взгляды и исследования ученых на эту тему, способы донесения оратором до слушателя значения слова.

**Ключевые слова:** речь и язык, мысль, предложение, фонема, слух, обнаружение, восприятие, понимание, закономерность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N31>

Nutq va til bo'yicha tadqiqotlar, odatda, miya va ong tizimlarining alohida jihatlari ustida ishlaydigan turli olimlar guruhlaridan amalga oshiriladi. Eshitish nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqotlar nutq tovushlarining akustik xususiyatlariga, eshitish tizimidagi nutq tovushlarining ifodalanishiga va qanday ishlatilishiga qaratilgan bo'ladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqotlar akustik-fonetik ketma-ketlikdan ma'no ifodalarini olish jarayonlarini va ularning jumlar va nutq tomondan yuqori darajadagi lingvistik talqinni qurish bilan qanday bog'liqligini o'rganadi.

Yevropalik olimlarning ko'plab tadqiqotlarida nutqning yuzaga chiqish aspekti sifatida fonemalar asos qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "b" fonemasi moddiy olamda reallashishi uchun o'ziga o'xshagan birliklarni faollashtirishi kerakligi ta'kidlanadi va i, m, l va boshqa tovushlar evaziga "bilim" so'zi mavjudlandi. Bu inson tanasidagi trillionlab hujayralarning organ ko'rinishini paydo qilganga o'xshash mavjudlik qonuniyatiga asoslanadi. Shunday qilib fonemalar mavjudlanmagan mohiyatning yuzaga chiqish jarayonida kichik vositachi birliklar sifatida paydo bo'ladi. Va ular mohiyatning aniqroq namoyonlashuv kesimida "so'z"ni hosil qilishadi. So'z esa o'z navbatida idrok uchun eng muhim va ishonchli vositachi vazifasini bajarib bera oladi.

TRACE modelida fonemalarning va so'zlarning taqlid qilish qoidasi ishlatilib, bu jarayon soxta ko'rinish paydo qilishligi ham ta'kidlangan [1]. Buni fonemalarning namoyonlashuv jarayonini o'z haqiqiy vazifasini unutib, moddiy ehtiyojlar uchun ishlatiladigan qism holatiga kelganlik hodisasi bilan izohlashimiz mumkin. Masalan, shamshir bir umr oshxonada taom tayyorlash uchun ishlatiladi. Uning vazifasi unutilib shu tushunchada qolib ketgan. Bu tushunilish va idrok etilishning yarim buzuv va xato ko'rinishi yuzaga kelgan bo'lib, bu mohiyat anglanishi uchun xanjar bilan bog'liq jinoyat sodir ettiriladi.

Jamiyatdagi kasalliklar va nizolarning ham ichki mohiyatida noto'g'ri shakllangan mohiyatning to'g'ri anglanishiga qaratilgan turtki yotganligini bilib olish mumkin.

Hayot mohiyatini anglashga, tushunib borayotgan ota farzandiga, chinakam mazmunni anglash uchun diniy bilimlarni o'rganishni buyuradi. Shu holatda fonemalar va so'zlarning paydo bo'lishlikka oid qonuniyatining asl dinamikasiga tushib olishga harakat qilinadi. Ota uchun undan boshqa barcha yo'llar bo'lmag'ur va xato.

Nutqni idrok etishning ikkinchi qonuniyatida ichimizdagi cheklanmagan darajadagi ma'lumotlar bazasining fonemalar ta'sirida yuzaga chiqish jarayoni tushuniladi. Bu vazifani fonemalar va ular asosidagi yuzaga kelgan so'zlar bajaradi. Biz so'zlarni o'qiganimizda dekodlash jarayonida sodir bo'ladi. Ichimizdagi hali mavjudlanib ulgurmagan strukturalarga mos fonemalardan tuzilgan so'zlar ketma-ketligigina bu kodni yecha olishi mumkin. Dekodlash asosida mohiyatning yuzaga chiqish jarayoni idrok holatiga mos tushadi. Biz idrok qilish asnosida oldindan mavjud, biroq hali namoyonlanmagan haqiqatlarni yuzaga chiqaramiz.

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqib, fonemalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Fonemalar o'zga o'lchamga tegishli energiyaning moddiy olamda namoyonlashuvi jarayonida biz taniy olishimiz lozim bo'lgan qolipga moslashgan shakli, ko'rinishi, mazmuni. Biz ular orqali o'z ichki mohiyatimizga yetib boradigan yo'lni topamiz.


Endi tug'ilgan chaqaloqda fonemalarning birinchi darajali ko'rinishigina faollashgan bo'ladi. U olam bilan shu muloqotdangina foydalanib turadi. Keyinchalik bu muloqot jarayoni tashqi muhit ta'sirida boshqa ko'rinishga almashinadi. U bilish va o'rganish jarayonini, taqlid qilish va qayta ishlash mexanizmlariga almashtira boradi. Shu bosqichdagi eng murakkab holat, bola mavjud bo'lgan vaziyatning qay holatdaligi hisoblanadi. Muhit qanday ko'rinish va strukturada bo'lsa, bolaning ong va ongosti strukturasi xuddi shu modullarga mos shakllanadi. Ko'pchilik bolalarda ulg'ayganda, o'zga struktura holati bilan uchrashganda va uni qabul qilishga tayyor bo'lganda, eskisini yangisiga almashish jarayoni yuz beradi. Bu jarayon murakkab holat ko'rinishida kechadi. Chunki jarayon ichdan kelayotgan energiyadan boshlab qarashlarimizni, fikrlashlarimizni, idrokimizni o'zgarishi holatida kechadi. Yirik shaharda yuz bergan tartibsizlik shaharga keladigan barcha yo'llardagi barqarorlikni izdan chiqarishi va qayta tartibga kelishi uchun ma'lum vaqt ketishiga o'xshash holatni yuzaga keltiradi.

Tovushlarni ifodalashning asosiy xususiyati shundaki, nutq signallari komponentlar guruhlariga parchalanadi va turli chastota komponentlari neyronlarning turli populyatsiyalarida ifodalanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tovushning qisqa muddatli spektri turli chastotalarga sozlangan neyronlardagi neyron faolligining nisbiy miqdorida ifodalanadi. Ushbu tonotopik tashkilot butun eshitish tizimida saqlanadi, garchi eshitish tizimining yuqori darajalarida bir nechta "xaritalar" bo'lishi mumkin. Tasvirning yana bir muhim xususiyati chiziqli bo'lmagan bostirishdir, bunda neyronlarning bir guruhidagi kuchli neyron faollik (barchasi o'xshash chastotalarga "sozlangan") qo'shni chastotalarga sozlangan neyronlardagi faollikni bostiradi. Ushbu bostirish tovushlarning spektral tarkibini keng tovush darajalari oraliq'ida namoyish qilish uchun zarurdir. Spektral xususiyatlar, shuningdek, asabiy faoliyatning ko'rinishi vaqtida (fazani blokirovka qilish) ifodalanishi mumkin, ammo bu "vaqtinchalik nozik tuzilma"ning roli hali ham bahsli. [2]

Eshitgan ovozlar bizga qanday ta'sir qiladi va biz ularni qanday qabul qilamiz. Yomg'ir yo'g'ishni boshlasa, ayol dorga ilingan kiyimlarni yig'ishtira boshlaydi. Nega? Chunki u o'zi uchun qulay hozirlik ko'rmoqda. Mashina kelayotganini ko'rgan odam chetga o'tadi. Bizning miya neyronlarimizga tebranish sifatida yetib kelayotgan ovoz to'lqini ana shunday vaziyat va stimulyatsiyalarni paydo qiladi. Shu onda lahzaning mingdan bir onida yuz berayotgan behisob navbatdagi vaziyatlar va keyingi holatga o'tish jarayonlari vaqtga nisbatan qulaylikni paydo qilishlik evaziga idrokni yuzaga chiqaradi. Shunda mana shunday ketma-ket jarayonlar evaziga inson fikrlaydi. Fikrlashdan maqsad namoyonlashuv jarayonini davom ettirish va yanada yuksaltirish.

Biroq aksar holatlarda bu jarayon o'z yo'nalishini o'zgartirib qoladi. Tabiiy yo'nalishdagi adashish, turli xildagi xatoliklarni yuzaga chiqaradi. Bu xatoliklar mavjud qurilmaning vaqtini, ish-faoliyatini, tabiiy holatini cheklashga olib keladi. Bu cheklashlar – kasalliklar, muammolar, tushunmovchiliklar ko'rinishida yuz beradi.

Uyimizda elektrdan foydalanib ko'p ishlarni bajaramiz. Biroq uydagi elektrdan foydalana olsakda, u bizga tegishli emas. Uning manbai juda katta kuchlanishga ega elektrostansiyaga borib taqaladi. Lekin bizlar o'zimizga kelgan liniyada, o'zimizga mos holatda xohlagan ishimizni bajarishimiz mumkin. Til ham xuddi shunday ishlaydi. Ichimizdan chiqayotgan fonemalar o'zi bilan birga mazmun bilan qorishib chiqadi. Umumiy mazmun shu onda xususiy, bizning o'zimizgagina tegishli mazmunga aylanadi. Umumiy mazmun esa, aslida hamma uchun bir xil bo'lib, uning manbai barcha jonli va jonsiz narsalarni boshqarib turgan yaratguvchiga bog'lanadi.



1-rasm

Umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisiga "Suvning vatani" mavzusida bir soatlik dars o'tish taklif qilindi. An'anaviy 45 minutlik dars tugagandan so'ng sinfdagi o'ttiz o'quvchini anhor bo'yiga sayrga taklif qildik. Sayr chog'ida kelishilganidek ularning har biriga bittadan qog'ozli qand tarqatib hoziroq yeyishini tayinladik. Oradan o'n minut o'tgach shu narsa ma'lum bo'ldiki, 30 o'quvchidan 13tasi konfet qog'ozini suvga tashlashgan, 9tasi yerga tashlashgan, 4 o'quvchi konfet qog'ozini qo'lida ushlab turgan, qolgan o'quvchilar konfetni yemagan.

Hozirgina "Suvning" mavzusida dars o'tilishiga qaramay, o'quvchilarda hech qanday ta'sir effekti sezilmagan. Qanday xatoga yo'l qo'yildi? Odatda bir necha javoblar tayyor: "o'qituvchi yaxshi dars o'tmagan", "o'quvchilar darsni yaxshi tinglashmagan", "o'quvchilar darsda e'tiborsiz o'tirishgan" va boshqalar. Bu javoblarni odatda bitta javob bilan asoslash mumkin. Agar o'rgatuvchi tegishli usulni tanlab o'rganuvchining energetik strukturasi o'zgartishlar hosil qila olsagina ta'lim jarayoni bajarilgan hisoblanadi. Demak, ta'lim jarayonini o'rgatuvchining energetik maydoni bilan o'rganuvchining energetik maydoni orasidagi axborot

almashinuvi jarayoni deb qarash mumkin va bunda nutqni tushunish, anglash jarayoni muhim rol bajarishligini hisobga olish mumkin edi.

Odatda bu jarayonga fiziologik va psixologik nuqtai nazardan yondashilib, ma'lumotlar ko'z, quloq va boshqa tuyg'ular orqali bosh miyaga uzatilishi, bosh miyaning javob reaksiyasi sifatida orqa miyaga uzatilishi va shunga o'xshash ta'sir vositalar orqali izohlanadi. Aslida bu yerda o'rganuvchi va o'rgatuvchilarning energetik strukturalaridagi axborot almashinuv jarayonigina muhim hisoblanadi. Albatta, bu yerda o'rgatuvchining o'rganuvchi bilan o'zaro axborot almashinishini amalga oshira olish qobiliyati mavjud bo'lishi kerak. Shundagina u o'rganuvchining energetik strukturasiga – ongostiga o'zgartirish yuzaga keltira oladi[3].

Ikkinchi o'tkazilgan tajriba bunga misol bo'la oladi. Biz bu tajribada yuqoridagi holatni qaytadan takrorladik. Faqatgina bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga "Suvning vatani" mavzusini o'tishda yuqori darajadagi integratsiyalashuvdan foydalanishni maslahat berdik. O'quvchilar bilan suhbat metodi asosida matn tahlil qilindi. Matnga oid topshiriqlar ham ishlandi. Shuningdek, darsda mavzuga oid ertaklardan ham foydalanildi.

Tajriba tugagach, yashirin kameradagi tasvirni kuzatdik. Natija quyidagicha: 30 o'quvchidan 3 tasi konfet qog'ozini suvga tashlagan, 4 o'quvchi yerga tashlagan, qolgan o'quvchilardan o'n nafari nariroqdagi axlat tashlanadigan joyga, konfet qog'ozlarining qolgan qismi o'quvchilarning qo'lida qolgan.

Natija yaxshi chiqdi. Bunga sabab o'rgatuvchining tegishli axborotni qay usulda o'rganuvchining energetik strukturasiga singdirishi edi. Ikkinchi o'qituvchi oldindan tayinlab qo'yilgan vazifani kuzatuvchilar oldida mukammal bajarish uchun axborotlarni qay usulda o'rganuvchiga singdira olishni rejalashtirib olgan edi. Masalaning eng muhim tomoni shunda ediki, o'quvchilar o'qituvchining nutqini idrok eta olishdi. O'qituvchi esa o'quvchilar tushuna oladigan usullarni qo'llay oldi.

Nutqni idrok etish bola ichki dunyosining eng ichki qavatlarigacha kirib bora oladigan, u yerda o'ziga xos o'zgarishlar yasay oladigan jarayon deb hisoblash mumkin.

Ijtimoiy jarayonlar tadqiqotchilari uzoq vaqtdan beri ushbu masalada quyidagicha xulosaga kelishdi — axborot ta'sirining kuchi nafaqat uning ishonchliligiga, balki nutqda taqdim etish tartibiga ham bog'liq. Ushbu jarayonda bir nechta qonunlar ham ajralib turadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin.

1. Ketma-ketlik qonuni. Ikki ma'ruzachi bir-biriga muqobil nuqtai nazarlarni himoya qiladigan vaziyatda ma'ruzalarni taqdim etishning vaqtinchalik ketma-ketligi katta ahamiyatga ega. Agar birinchi ma'ruza va ikkinchi ma'ruza o'rtasidagi vaqt oralig'i kichik bo'lsa, birinchi ma'ruzachining xabari tinglovchilar uchun yanada ta'sirli bo'ladi. Biroq, raqibning so'nggi nutqi va hakam sifatida tomoshabinlarning qarori o'rtasidagi interval iloji boricha uzoqroq bo'lishi kerak. Ushbu effekt "birlamchi effekt" deb nomlanadi. "So'nggi effekt" deb nomlanuvchi ikkinchi taktika so'nggi kommunikatorning ishlashi foydasiga ishlaydi. Agar siz birinchi sharhlovchi bo'la olmasangiz, pauza qilishga, tanaffus e'lon qilishga, nutq va qaror qabul qilish vaqtini yaqinlashtirishga harakat qiling. Agar bu muvaffaqiyatli bo'lsa, odamlar sizning nuqtai nazaringizni qimmatroq deb qabul qilishlari uchun yaxshi imkoniyat.

2. Navbat qonuni. Eng muhim voqealar birinchi navbatda xabar qilinadi va shuning uchun tomoshabinlar tomonidan yanada mazmunli deb qabul qilinadigan naqshinkor uslubda namoyon qilinadi.

3. Oldingi qonun. Har qanday ma'lumot tinglovchilar tomonidan birinchi talqinda o'zlashtiriladi; kelajakda talqinni o'zgartirishga bo'lgan har qanday urinish tubdan yangi ma'lumot yoki yolg'on (yoki haqiqatdan qochish istagi) sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun kim birinchi bo'lib ma'lumotni sharhlashi. ma'lumotni taqdim etishda ustunlik juda muhim. Innokulyatsion ta'sir kabi ta'sir qilish usuli oldingi qonunga asoslanadi.

4. Innokulyatsiya (lot. payvandlash) ta'siri. Uning mohiyati shundaki, agar odam dastlab xabarga salbiy munosabatni shakllantirsa yoki yomon asosli xabarni rad etsa, u ushbu manbadan hatto keyingi xabar qat'iy va ishonchli tayyorlangan bo'lsa ham bunday tarkibni qabul qilish va keyingi barcha ma'lumotlarga qarshi "immunizatsiya qilinadi". Agar kiruvchi ma'lumotlar tez orada tarqalishi ma'lum bo'lsa, innokulyatsiya effekti qo'llaniladi. Bunday ma'lumotlarning mazmuni ma'lum bo'lganda, uni boshqa xabar bilan oldini olish mumkin, bu dastlab tinglovchilarda istalmagan ma'lumotlarni keyinchalik salbiy idrok etishga munosabatni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqni idrok etish — bu nutqni ishlab chiqarish jarayoniga teskari jarayon, ammo nutqni ishlab chiqarish va idrok etishning ushbu bosqichlari o'rtasida to'liq o'xshashlik yo'q. Nutqni idrok etish uning qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bu borada bir qator nazariyalar mavjud. Ulardan biri shundaki, tinglovchi nutqni idrok etishda uchta turdagi — grammatik, semantik va pragmatik qoidalarga amal qiladi. Lingvistik qoidalar odatda tinglovchi tanlashi mumkin bo'lgan alternativalar sonini cheklashga xizmat qiladi. Umuman olganda, nutqni idrok etish uning qonunlariga muvofiq amalga oshirilishini inobatga olgan holda ma'ruzalarni tinglovchiga yetkazib berish ma'ruza mazmunan to'g'ri tushunish va tahlil qilish imonini beradi. Bu o'z navbatida notiq mahoratiga ham uzviy bog'liq jarayondir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References**

1. Randy L. Diehl Psixologiya bo'limi va Pertseptual tizimlar markazi, Texas universiteti, Ostin, Texas 78712-0187.
2. Endryu J. Lotto Boys Town milliy tadqiqot kasalxonasi, Omaha, Nebraska 68131.
3. Lori L. Xolt Psixologiya bo'limi va idrokning nerv asoslari markazi, Karnegi Mellon universiteti, Pitsburg, Pensilvaniya 15213.
4. Демьянков, В. З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века // Язык и наука конца XX века : сб. ст. М. : Рос. гос. гуманитар. ун-т, 1995. С. 305.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).